

“O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi majlisining
BAYONNOMASI № 38/2

**“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvining
majlislar zali**

2026 - yil «25» may

Raislik qiluvchi:	Sh. Rasulov – “O‘zagrosug‘urta” AJ boshqaruvi raisi
Boshqaruv a‘zolari:	A. Yusupov, B. Axadov, B. Sodiqov, Sh.Boltayev
Taklif etilgan:	B. Turgunov, A. Suyumov
Majlis kotibi:	K. Isayev

KUN TARTIBI:

**“O‘zagrosug‘urta” AJda Komplayens nazorat xizmati tizimini
samarali yo‘lga qo‘yish xamda Qonunchilikka kiritilgan o‘zgartish va
qo‘shimchalarga asosan ichki idoraviy xujjatlarni muvofiqlashtirish
to‘g‘risida**

(Sh.Rasulov, A.Yusupov, B.Axadov, B.Sodiqov, Sh.Boltayev)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Boshqaruvning Komplayens nazorat xizmati boshlig‘i B. Turgunov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-270-son Farmoni bilan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining institutsional mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi. Xususan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan muvofiqlashtirilishi belgilanganligini, Shuningdek, komplayens bo‘linmalari rahbarlari va xodimlarining vazifa hamda funksiyalari Agentlik bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi, ular zimmasiga asosiy vazifalariga daxldor bo‘lmagan topshiriqlarni yuklash taqiqlanganligini, bundan tashqari, komplayens xizmati xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish faqat Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi tartibi joriy etilishi, 2026-yil 1-iyuldan boshlab davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi. Shu bilan birga, “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksi hamda uning “E-Komplaens” moduli orqali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyatini raqamlashtirish choralari nazarda tutilganligini bildirib o‘tdi.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2026-yil 28-martdagi 84-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Namunaviy nizomda korrupsiyaga

qarshi ichki nazorat bo'linmalarining maqomi, vazifalari, huquq va majburiyatlari aniq belgilab berildi.

Nizomga muvofiq, ichki nazorat bo'linmalari rahbarlari va xodimlarini lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod qilish hamda intizomiy javobgarlikka tortish masalalari Agentlik bilan majburiy tarzda kelishiladigan tartib joriy etildi.

Shuningdek, komplayens xizmati mas'ul lavozimlari uchun yagona malaka talablari belgilandi. Jumladan, tegishli sohalar bo'yicha oliy ma'lumot, belgilangan ish staji hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus sertifikatga ega bo'lish majburiy talab sifatida belgilandi.

Nizom bilan komplayens xizmatining vazifalari sezilarli darajada kengaytirildi. Xususan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish, davlat xaridlarini preventiv tahlil qilish, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavflar reestrini yuritish vazifalari yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-270-son Farmoni, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2026-yil 28-martdagi 84-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Namunaviy Nizom talablarini bajarish xamda boshqa Qonunchilikka kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra Jamiyat tizimida Komplayens nazorat xizmatiga aloqador muqaddam qabul qilingan ichki idoraviy xujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'li birxillashtirish zarurati tug'ilganligini bayon qildi.

Shunga ko'ra, muhokamaga kiritilayotgan barcha lokal hujjatlar takomillashtirilgan holda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlar namunalari asosida qayta ishlab chiqilganligi, uning mazmun-mohiyati haqida batafsil axborotlar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Boshqaruv majlisi qaror qiladi:

1. Jamiyat Boshqaruvining Komplayens nazorat xizmati boshlig'i B. Turgunovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin va inobatga olinsin.

2. Komplayens nazorat xizmatining Nizomi (yangi tahrirda), Komplayens nazorat xizmati xodimlarining lavozim Yo'riqnomasi Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. "O'zagrosug'urta" AJda Komplayens nazorat xizmati tizimini samarali yo'lga qo'yish maqsadida:

3.1. O'zagrosug'urta" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati 1-ilovaga;

3.2. Korrupsiya xavf-xatarlarini baholash Uslubiyoti 2-ilovaga;

3.3. Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom 3-ilovaga;

3.4. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida xabarlarni qabul qilish Reglamenti 4-ilovaga;

3.5. Korrupsiya qarshi kurashish sohasida o'qitish bo'yicha Yo'riqnoma 5-ilovaga;

3.6. Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma 6-ilovaga;

- 3.7. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma 7-ilovaga;
- 3.8. Korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 8-ilovaga;
- 3.9. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi to'g'risida hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom 9-ilovaga;
- 3.10. Xizmat tekshiruvlarni o'tkazish bo'yicha Reglament 10-ilovaga;
- 3.11. Jamiyat tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari 11-ilovaga;
- 3.12. Odob-axloq to'g'risidagi komissiya Nizomi 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;
- 3.13. "O'zagrosug'urta" AJ xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'alar qiymati hamda ularni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi Nizomi 13-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2026-yil 1-iyundan amalga kiritilsin.
4. Yuqorida qabul qilingan hujjatlar Ijro apparati (K. Isayev) tomonidan tegishli boshqarmalarga, tuzilmaviy bo'linmalarga hamda Jamiyatning hududiy filiallariga ijro va ma'lumot uchun kiritilsin.
5. Ushbu bayonnoma Jamiyatning Kuzatuv kengashiga ma'lumot uchun taqdim etilsin.
6. Mazkur bayonnoma qarori ijrosi nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Boshqaruv raisi

 **Sh. Rasulov**

Boshqaruv a'zolari:

_____ A. Yusupov

_____ B. Axadov

_____ B. Sodiqov

_____ Sh. Boltayev

Kiritdi:

_____ B. Turgunov

Huquqshunos:

_____ E. Salimboyev

Majlis kotibi:

_____ K. Isayevv